RAQOBATDOSHLIK TIZIMIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING ROLI

Turebekov Anvarbek Adilbekovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti professori, i.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17015339

ANNOTATSIYA

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari o‘z tarmog‘ida raqobatlasha olish qobiliyatiga ega bo‘lgan holda iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi, bu esa innovatsion faollikka va resurslardan foyda keltiradigan ishlab chiqarish uchun foydalanishga olib kelib, bu esa o‘z navbatida talab va taklif orqali tovarlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishga ta’sir ko‘rsatadi va ular o‘rtasidagi muvozanatga erishadi. Mazkur maqolada ishlab chiqarish xarajatlarining korxona raqobatbardoshligidagi rolini tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari, iste’mol bozori, raqobat, raqobatdoshlik, tenglik kategoriyasi, ishlab chiqarish xarajatlari, eksport, texnika va texnologiya.

АННОТАЦИЯ

В условиях рыночной экономики производственные предприятия со способностью конкурировать в своей отрасли обеспечивают свой экономический рост, что ведет к инновационной активности и использованию ресурсов для прибыльного производства, которая в свою очередь влият на производство и потребление товаров через спрос и предложение, достигая равновесия между ними. В данной статье анализируется роль производственных издержек в конкурентоспособности предприятия.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

рыночные экономические отношения, потребительский рынок, конкуренция, конкурентоспособность, категория равенства, производственные затраты, экспорт, техника и технологии.

ABSTRACT

In a market economy, manufacturing enterprises with the ability to compete in their industry ensure their economic growth, which leads to innovation activity and the use of resources for profitable production, which in turn affects the production and consumption of goods through supply and demand, achieving an equilibrium between them. This paper analyses the role of production costs in enterprise competitiveness.

KEYWORDS

market economic relations, consumer market, competition, competitiveness, category of equality, production costs, exports, machinery and technology.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida sanoat ishlab chiqarish jarayoni bilan shug‘ullanuvchi har bir ishlab chiqarish faoliyatini olib borayotgan subyektning asosiy vazifasi foyda olib ishlashini ta’minlash uchun uni iste’mol bozorida raqobatdosh bo‘lishini xohlaydi.

Umuman ishlab chiqarish subyektlarini iqtisodiy jihatdan o‘sib borishi albatta ma’lum bir tarmoq ishlab chiqarish sohasida raqobatdosh bo‘limini talab qiladi va ular o‘zaro iqtisodiy jihatdan bog‘liqdir. Sanoat ishlab chiqarish korxonalari ma’lum bir ishlab chiqarish yo‘nalishida raqobatdosh bo‘lishi bilan birga uni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanib borishi bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayonini uni raqobatdoshlikdan ajratilgan holda samarali foyda olib ishlashi aslo mumkin emas. U doimiy raqobat asosida ishlab chiqarish samarali rivojlanib borishga harakat qiladi.

Raqobat bu mazmunan iqtisodiy kategoriya bo‘lib, nafaqat ishlab chiqarish jarayonida balki iqtisodiy munosabatlarini tashkil topishida iqtisodiy faoliyat olib borayotgan subyektlar turli soha yo‘nalishida bo‘ladigan raqobatlarni tashkil etadi.

Har bir huquqiy subyekt o‘zining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va samarali olib borishni tashkil etish uchun ”raqobat” iqtisodiy kategoriyani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mohiyatini tushunib olishi kerak.

Raqobat ishlab chiqarish jarayonini erkin ishlab chiqarish subyektlarida bo‘lishi kerak. Erkin raqobat asosida tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlab chiqarish subyektlarini foyda olib ishlashlarini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonini innovasion tarzda rivojlantirishni ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish xomashyolaridan va ishlab chiqarish vositalaridan innovasion tarzda foydalanishiga e’tibor beradilar.

Raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’mol bozorida ishlab chiqarish va tovar mahsulotlarini iste’mol qilishni talab va taklif asosida amalga oshirilishiga olib

keladi. Raqobatdoshlik ishlab chiqarish va iste'mol talablarini o'zaro tenglik darajasida bo'lishini ta'minlaydi. Tenglik kategoriyasida ishlab chiqarish va iste'molni o'zaro bir biriga nisbatan moyillik darajasida rivojlanib borishi bu raqobatni iqtisodiy natijasidir. Raqobat yangi ishlab chiqarish jarayonini mavjud ishlab chiqarish xarajatlari asosida tashkil etish bilan birga yangi ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish asosida ishlab chiqarish jaroyonlarini raqobatdoshlik darajalarini mustahkamlaydi. Ishlab chiqarish jarayonini raqobatdoshlilik darajasini ta'minlash foydalanilayotgan ishlab chiqarish xomashyolari bilan birqatorda yangi ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishni dastlabki ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ko'llanilgan yangi ishlab chiqarish xarajatlari uni raqobatdoshlik darajalarini oshiraborishni ta'minlaydi.

Raqobat ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida qanday hamoshyo resurslaridan foydalanish zarurligini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish subyektlarida ishlab chiqarish jarayonini raqobatdoshlik darajasida olib borishni ta'minlashda bu ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanish ishlab chiqarish subyektlari uchun qanchalik samarali ekanligini bilib olishimiz zarur.

Demak, ishlab chiqarish subyektlari ishlab chiqarish jarayonida qanday ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanish zarurligi firma, korxona mahsulotlarini raqobatdoshlik darajalari qanday holda bo'lishini belgilovchi ishlab chiqarish siyosatiga va raqobatdoshlikni ta'minlash siyosatiga bog'liq bo'ladi. Korxona ishlab chiqarish faoliyatini raqobatdoshlik darajasini o'zini mustaqil o'zaro bog'liqda ko'rish lozim. Chunki ishlab chiqarishni olib borish bu raqobat muhimlidir dep qarash zarur.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda bozor munosabatlari sharoitida birinchi o'rinda ishlab chiqarilayotgan tovar mahsulotlarini raqobatdoshlik darajasiga e'tibor borish zarur dep hisoblaymiz.

Chunki ishlab chikarilayotgan tovar mahsulotlariga bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari bu tovar mahsulotini iste'mol bozorida raqobatdoshlik darajasini ta'minlash mumkin. Raqobatdoshlik ma'lum sanoat ishlab chiqarilayotgan korxona mahsulotlarini raqobatdoshlik darajasini belgilab beradi. Raqobatdosh darajada ishlab chiqarish korxona mahsulotlari o'zining raqobatdoshlik darajalari bilan bir turda ishlab chikarilayotgan tovar mahsulotlarida o'zining ustuvor mavqeyga ega ekanligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarish jarayonida erishilgan raqobatdoshlik va ma'lum iste'mol mahsulot ishlab chiqarish jarayonida balki ishlab chiqarish korxonalari darajasida ishlab

chiqarish tarmoqlar darajasida bo‘tun iqtisodiy mintaqalar darajasida ham samarali ekanligini belgilab beradi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish korxona subyektlarini raqobatdoshlik asosida iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarishi iste’mol bozorlarida bu tovar mahsulotlarini iste’mol bozorlarida hizmat qilish davrini qaydarajada bo‘lishini belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda aniq iste’mol tovarini ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lsa uni raqobatdoshlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

AQShning investision banki mahsulotlariga asoslansak uning transaksion banklari umumiy 223 yirik kompaniyalarning 125tasi yuqori raqobatdosh ishlab chiqarish xususiyatiga ega. Angliya kompaniyalarida 21, Yaponiyada esa 10ta firmalar o‘zlarining ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini raqobatdoshliklari bilan ajralib turadi.

Rossiya ishlab chiqarish kompaniyalarida raqobatdoshlikka ega bo‘lgan kompaniyalar asosan xomashyoni eksport qilish, ishlab chiqarishda esa harbiy texnika va texnologiyalarni va yangi ishlab chiqarish xomashyolarini ishlab chiqarishda ko‘rish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarish korxonalarini raqobatdosh bo‘lishi uni ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda turli tashkiliy, ishlab chiqarish texnologik va iqtisodiy hamda ijtimoiy omillardan foydalanish asosida o‘zining raqobatdoshligini ta’minlashi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonida korxonalarini raqobatdosh bo‘lishi ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalanishni tashkil etish darajasiga bog‘liq. Ishlab chiqarish xarajatlaridan ishlab chiqarish jarayonida foydalanishda ishlab chiqarishni raqobatdoshlikni ta’minlash statistik ma’lumotlarini dinamik asosida iqtisodiy tahlil qilib borish darajasi bilan uzviy bog‘liq sababi ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishni tashkil etish korxona raqobati bilan bog‘liq bu iqtisodiy holatda ishlab chiqarish jarayonini dinamik ravishda rivojlanib borish faqat ishlab chiqarish xarajatlarini raqobatdoshlikni ishlab chiqarishda tashkil etish bilan bog‘liq bo‘ladi. Dinamik aspektda ishlab chiqarish jarayoning o‘sishi iqtisodiy asosda tahlil qilishni samaradorlik darajasini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishni dinamik qator asosida iqtisodiy tahlil qilishda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi ikki asosiy masalaga, ya’ni birinchi masala ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali ustuvor olib borishni qanday tashkil etishga e’tibor borish zarur deb hisoblaymiz. Shu bilan birga bu ustuvorlikni saqlab qolish uchun nimaga e’tibor berish zarur ekanligini anglab olish ham kerak.

Umuman, iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish xarajatlari asosida korxona ishlab chiqarishini raqobatdoshligini ta’minlashda klassik nuqtai nazardan


qaraganda, raqobatdoshlik ishlab chiqarish xarajatlarini tejamkorligini ta’minlash hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga kamayib borishi uni iqtisodiy samaradorligini o‘sib borishini ta’miynlaydi.

Bu to‘g‘risida iqtisodchi Xashukaev S., “mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borish xarajatlarini asoslanadi”, deb hisoblaydi. Iqtisodchi V. Plonskiy esa, “ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish - raqobatdoshlik omilidir”, deb hisoblaydi.

Biz bu iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari va raqabotdoshlik to‘g‘risida bergan ilmiy xulosalariga to‘liq qushilish bilan birga quyidagi iqtisodiy ilmiy xulosamizni bermoqchimiz “ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish jarayonini raqobatdoshliligini va foyda olish samaradorligini ta’minlaydi. Sanoaat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan birga ularni raqabotdoshlik darajasini oshirishga va olinadigan foydani o‘sib borishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarishdagi raqobatdoshlik bir-birlariga o‘z ta’sirlarini o‘tkazib borishi ishlab chiqarish jarayonini samarali rivojlanishiga olib keladi.Bu ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga o‘z ta’sirlarin o‘tkazib boradilar.

Ishlab chiqarish xarajatlari va unda bo‘ladigan raqobatlatdoshlik quyida (1-rasmda) ko‘rish mumkin.



1-rasm. Korxona ishlab chiqarish va raqobatdoshlikni o‘zaro aloqalari.